



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

IJTIMOIIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2021/6 (1)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valikul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайберганович – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нируфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содикова Шохиди Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зокидов Азаматджон Азамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

MAHALLA VA MENEJMENT

Narbayeva T.K. Ayollarni har tomonlama himoya qilish jamiyatning muhim vazifasiga aylandi	4
Qodirxonova M.A. O‘zbekistonda zo‘ravonlikka qarshi kurash: xalqaro tajriba va yechim.....	10
Egamberdiyeva N.M. Mahalla va oila institutlarining mustahkamligi jamiyat farovonligi kafolatidir	18
Musurmanova A.M. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbarlarining kompetentligi – faoliyat samaradorligining omili.....	25
Atamuratov M.U. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida boshqaruv kadrlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish tizimini joriy etish	35

JAMIYAT VA OILA

Ismailova Z.K. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari.....	47
Abduramanov X.X. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlari	59

XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI

Saydivaliyeva X.X. Xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash – ularning huquqiy madaniyatini shakllantirishning muhim omili	71
Xoliqova M.K. Zamonaviy ilmiy paradigma konteksti hamda XXI asr kompetensiyalari tizimida gender sensitivlik.....	80
Каримова Д.М. Социологический «портрет» женской безработицы в условиях пандемии (на примере Узбекистана)	94

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Shoumarov G‘.B. Sharqona qadriyatlar va islom dinida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari.....	105
Alimardonov Z.Sh. O‘smirlik davrida deviant xulq-atvor shakllanishiga muammoli oilalarning ta’siri.....	112
Abdusamatov X. Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	121

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

Reves I. Ruziyeva G. Родительская компетентность как педагогическая проблема	131
Baratova Sh., Zoxitova N. Structure and content of career guidance system in USA... ..	140

YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI

Nabiyeva O.R. Reproduktiv yoshdagi ayollarda kayfiyat o‘zgarishining sabablari va ijtimoiy-psixologik determinantlari	147
--	-----

Shoumarov G‘ayrat Baxramovich,
psixologiya fanlari doktori, professor
Xalq ta’limi vaziri maslahatchi



SHARQONA QADRIYATLAR VA ISLOM DINIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning sharqona qadriyatlar va islom ta’limoti bilan bog‘liqligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Din, oila, qadriyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Avlodlar almashuvida oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish muhim omil ekanligi ta’kidlangan.

Аннотация. В данной статье описаны социально-психологические особенности связи семейных отношений с восточными ценностями и исламскими учениями. Объясняются понятия религия, семья, ценности. Подчеркнуто, что сохранение семейных ценностей является важным фактором обмена поколениями.

Annotation. This article describes the socio-psychological features of the relationship of family relations with Eastern values and Islamic teachings. The concepts of religion, family, values are explained. It is emphasized that the preservation of family values is an important factor in the exchange of generations.

Tayanch tushunchalar: oila, nikoh, din, qadriyat, islom, avlodlar

Ключевые слова: семья, брак, религия, ценности, ислам, поколения

Keywords: family, marriage, religion, values, islam, generations

***Avlodlar
o'rtasidagi,
ayniqsa, oilada
turli avlod
vakillari, ota-
ona va bolalar
o'rtasidagi o'zaro
munosabatlar
masalasi
insoniyat jamiyati
taraqqiyotining
ilk davrlaridan
buyon eng dolzarb
muammolardan
biri bo'lib kelgan.***

Avlodlar o'rtasidagi, ayniqsa, oilada turli avlod vakillari, ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi insoniyat jamiyati taraqqiyotining ilk davrlaridan buyon eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Chunki odamzod erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko'nikmalar, shuningdek, insoniylik alomatlarini avlodlardan avlodga aynan shu munosabatlar tizimi – ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi va bu meros boyitib boriladi.

U yoki bu xalqning milliy qadriyatlariga aylanib qolgan urf-odatlar, xulq-atvor me'yorlari aynan shu avlodlararo munosabatlar orqali asrlar davomida saqlanib, sayqallanib boradi yoki aksincha. Agar avlodlararo munosabatlar maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinmagan bo'lsa, ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarida salbiy sifatlar hukm sursa, bunday qadriyatlar yo'q bo'lib ketishi, ularning o'rnini yot aqidalar egallashi mumkin.

Katta avlod vakillari tomonidan hayotiy tajribani yosh avlodga uzatish, yosh avlod vakillari tomonidan katta avlod me'rosini o'zlashtirib olish, ularni yanada boyitish va, o'z navbatida, keyingi avlod vakillariga uzatish hamma vaqt ham "silliq" kechavermaydi. Bu o'rinda, turli zamon, davr, yosh vakillarining o'zaro munosabatlarida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar yuzaga kelib turadi. Sog'lom avlodni shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillari, ota-onalar va bolalar munosabatlari xarakterining ta'siri haqida gap yuritish bilan birga, o'quvchi e'tiborini ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlarida kuzatiladigan ayrim noxushliklarning sababi shu bola xulqi, shaxsi yoki uning ota-onasi xatti-harakatlarigagina emas, balki uning ajdodlariga, umuman, insoniyat evolyutsiyasiga, o'tmishiga ham ko'p jihatdan bog'liq ekanligi haqidagi mulohazalarga qaratmoqchimiz. Zero, buyuk adibimiz A.Qodiriy ta'kidlaganidek, "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qanchalik ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib qilsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", – deb ta'kidlaganidek, bugungi kunda nikoh-oila munosabatlari zaminida yuzaga kelayotgan ko'plab savollarga javobni o'tmish mutafakkirlarimiz ishlarida ko'rishimiz mumkin. Shunday ishlardan

¹ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Roman. / "Asr oshgan asarlar" turkumi / Tahrir hay'ati: Bobur Alimov va boshqalar. – Toshkent: "Sharq", 2004. – B. 5.

biri hamyurtimiz Burhoniddin Marg'inoniy qalamiga mansub "Hidoya" asaridir. Yozilganiga ming yildan oshgan mazkur asar, ming yildan buyon islom universitetlarida Fiqiq ilmidan darslik sifatida foydalanib kelingan bo'lsa-da, biroq biz unga yetarlicha ahamiyat bermay, qonunchilik ishlarida, ayniqsa, nikoh-oila qonunchiligida undan foydalanmaganmiz. Asarning "Nikoh kitobi" va "Taloq kitobi" nomli boblarida er-xotin munosabatlarida yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan qator muammolarning shar'iy yechimlari berilgan. Albatta, hozirgi qonunchilikda asarda bitilgan takliflarga rioya qilish o'z asosini topmagan bo'lsa-da, oilaviy hayotda, nikoh-oila munosabatlari dinamikasida, er va xotin munosabatlarining qonuniy hal etilishini taqozo qilgunicha olib bormay, ongli boshqarib, shariat qoidalarida ko'p bor ta'kidlanganidek, munosabatlarni tabiiy qonuniyatlar asosida, sabr, shukr bilan boshqarib saodatli umr kechirish mumkin. Masalan, asarda yozilishicha: "...taloq man qilingan, ammo (er ila xotinning bir uyda kelishmay yashashlari oqibatida, ulardan biror gunoh sodir bo'lishidan) qutulish uchun ruxsat etilgandir", "...nikoh qullikning bir ko'rinishi... Taloq esa o'sha qullikni ketkazishining bir ko'rinishidir".

Islom ta'limotida oilaviy hayot muqaddas hisoblanadi. Chunki oila jamiyat binosining g'ishti, bir bo'lagidir. Agar binoning g'ishtlari sog'lom bo'lsa, bino ham mustahkam bo'ladi, aks holda, bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi.

Shariatda, xususan, "Hidoya"da oila va nikoh masalasida katta ma'rifiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hukmlardan biri ayolning nikoh to'g'risida o'zining qanday haq-huquqlarga ega ekanligi haqidagi bilimga ega bo'lishining zarurligidir: "Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishligi shart qilinadi. Chunki qiz bola faqat ilmli bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi".

"Hidoya"da oila va nikoh masalasida chiqarilgan hukmlarning katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tomonlaridan yana biri – erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatlardan mumkin qadar bir-birlariga teng bo'lishlariga e'tibor qaratishdir: "Nikohda tenglik e'tiborga olinadi. Payg'ambar alayhissalom aytganlarki: "Ogoh bo'linglarki, ayollarni faqat o'zlariga teng bo'lgan kishigagina bersinlar".

Aynan shuning uchun dinimizda oila masalasiga benihoya jiddiy e'tibor qaratiladi, uning mustahkamligi, er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbat davomiyligini ta'minlash uchun dinimiz o'ziga xos qonun-qoidalarni joriy qilib qo'ygan. Oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch hamda

Islom ta'limotida oilaviy hayot muqaddas hisoblanadi. Chunki oila jamiyat binosining g'ishti, bir bo'lagidir. Agar binoning g'ishtlari sog'lom bo'lsa, bino ham mustahkam bo'ladi, aks holda, bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi.

***XIX-XX asrda
Turkiston
zaminida kechgan
milliy uygʻonish
davrlarining nafaqat
adabiyoti, balki
ijtimoiy-siyosiy,
maʼnaviy-maʼrifiy
hayotiga ham
kuchli turtki
bergan qomusiy
ilm egasi, professor
Abdurauf
Fitratning oila
haqidagi psixologik
qarashlari mana
qariyb yuz yildirki,
oʻz ahamiyatini
zarracha
yoʻqotmay
kelayotir.***

vazifalarni yuklagan, bir-birlariga nisbatan haq va huquqlarni belgilab bergan. Agar er va xotin mazkur qoidalarga amal qilishsa, bir-biriga nisbatan zimmasidagi burch va masʼuliyatlarni his qilib, sidqidildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday namunaviy oilada tugʻilgan farzandlar ham goʻzal tarbiya topadi va kelajakda ulardan jamiyatga foydasi tegadigan buyuk insonlar yetishib chiqadi. Mabodo, oila boshliqlari, yaʼni er va xotin bir-birlarining haq-huquqlarini tanimasa yoki ularni poymol qilsa, tabiiyki, unday oilada tinchlik va xotirjamlik boʻlmaydi, oʻzaro mehr-muhabbat zavol topadi, oila parokanda boʻlish va parchalanish xavfi ostida qoladi.

Shu bois ham dinimiz er va xotinning har biriga oʻziga xos huquqlar ato etib, maʼlum majburiyatlarni ham yuklagan. Mazkur huquqlarning baʼzilari er va xotin oʻrtasida mushtarak boʻlsa, baʼzilari erga tegishli va yana baʼzilari xotinning oʻziga tegishli boʻlgan huquqlar hisoblanadi.

Shuningdek, xotin-qizlar haq-huquqini eʼzozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona nazdidagi burchi, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ham ibratomuz fikrlar mavjud. Bu manbalarda berilgan maʼlumotlar xalqimiz uchun milliy qadriyatlarga aylanib, qariyb 12 asrdirk, itoat etib kelingan islom aqidalari tarzida genofondimizga kirib, xalq ijtimoiy ongsizligi tarzida xalqimiz ruhiyati qaʼriga singib ketgan.

XIX-XX asrda Turkiston zaminida kechgan milliy uygʻonish davrlarining nafaqat adabiyoti, balki ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy hayotiga ham kuchli turtki bergan qomusiy ilm egasi, professor Abdurauf Fitratning oila haqidagi psixologik qarashlari mana qariyb yuz yildirki, oʻz ahamiyatini zarracha yoʻqotmay kelayotir. Buning sababi, u ilgari surgan gʻoya va mulohazalar insoniy muhabbat, mehr-u vafo, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, millat kelajagi singari boqiy qadriyatlarga bagʻishlangan.

“Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogʻliq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli boʻladi”². Shu oʻrinda, mamlakatimizda oila institutining barqarorligini taʼminlash, oilalar tinchligini asrash boʻyicha olib borilayotgan ishlar bejiz emasligidan dalolat beradi. XIX-XX asrda Yevropa olimlari tomonidan oila boʻyicha juda koʻplab kitoblar yozib nashr qilingan.

Turkiston zaminida oilalar uchun kitoblar yozilmaganligini Fitrat quyidagicha izohlaydi: “Hozirda taraqqiy etayotgan islomiy oʻlkalarda

² Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: “Маънавият”, 2016. — Б. 5.

turk, arab, fors olimlar o'z millatlarining kimligini anglab yetib, oila nizomi va tinchligi haqida ancha kitob yozdilar. Bu kitoblarda ular diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib oilaviy masalalarga izoh berganlar. Lekin turkistonliklar, xususan, biz buxoroliklar, bu ne'matdan mahrum bo'ldik"³. Haqiqatan ham o'sha davrda oila masalalari bo'yicha boshqa ilmiy adabiyotlarni uchratmaymiz. XIX-XX asrda ilm ahli tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan oilalarda juda ko'plab muammolar yuzaga kelgan. Yoshlarni oila qurishga tayyorligi, nikoh oldi tushunchalar, oila qurish tartibi, farzand tarbiyasi, ko'p xotinlik kabi muammolar avj olgani va uning yechimi topilmaganidan dalolat beradi. Xoqonliklar davrida xotin ustiga xotin olishlik amaldorlar orasida ko'plab kuzatilgan. "Avval siz falon qizni nikohingizga olasiz. A'ni ul bechoraga saodat va baxtiyorlik va'da qilib hayotining boyligi, ya'ni yoshligini o'z tasarrufingizga olasiz. Ikki-uch yil yaxshi yashaysiz. Uylanishdan maqsad bo'lgan ikki-uch farzand vujudga keladi. Ayolning tarovati va yoshligi sizning muhabbatigiz va mehringiz yo'lida sarf bo'lgandan so'ng sizning hayvonlik shahvatingiz uyg'onib harakatga keladi"⁴.

O'tgan asrning atoqli psixologlaridan biri K.G.Yung u yoki bu millatning milliy qadriyatlari, ijtimoiy ongsizligi haqida, "Arxetip"lari haqida yozadi. "Arxetip" butun insoniyatga xos ichki immanent xususiyatlar bo'lib, shunday simvolik-timsoliy formulaki, anglanmagan holatda ishga tushadi va hech qachon anglanmaydi, deb ta'kidlaydi. "Arxetip"lar inson holatining shakliy timsollari yoki majoziy andozalaridir. Ular asosida aniq ma'no-mazmunga ega bo'lgan obrazlar shakllanadi. Inson o'z hayoti va faoliyati davomida ana shu timsollarga tayanadi. Yung ko'zda tutgan "arxetip"lar inson ruhiyatining eng tubida yotgan ruhiy kechinmalardir, ular nafaqat alohida individning, balki butun insoniyatning ko'p ming yillar davomidagi hayotga moslashuvi va yashash uchun kurashi natijasida shakllangan.

XIX asrning o'rtalarida bizning o'lkamizda yashab, ijod etgan, xalqimiz milliy xususiyatlarini tadqiq etgan German Vamberi o'z ishlarida Sharqda, ayniqsa, O'rta Osiyoda dinning ahamiyati haqida yozar ekan, "Bu yerda din odamning yaratganga munosabatini aniqlash vazifasi bilangina cheklanmaydi, u bu yerda qandaydir ko'proq narsa bo'lib, xalq jamoatchiligining barcha jabhalariga kirib boradi, u siyosatga ham, ijtimoiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, o'z izini (muhrini)

O'tgan asrning atoqli psixologlaridan biri K.G.Yung u yoki bu millatning milliy qadriyatlari, ijtimoiy ongsizligi haqida, "Arxetip"lari haqida yozadi. "Arxetip" butun insoniyatga xos ichki immanent xususiyatlar bo'lib, shunday simvolik-timsoliy formulaki, anglanmagan holatda ishga tushadi va hech qachon anglanmaydi, deb ta'kidlaydi.

³ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: "Маънавият", 2016. — Б. 5.

⁴ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: "Маънавият", 2016. — Б.18.

Fitrat oilalarni baxtli, saodatli va zulm ko'rmasdan yashashlari uchun islomiy qonunlarning bo'lishini afzal ko'rgan. A. Fitrat oila bo'yicha qarashlari islom dini va uning muqaddas kitobi Qu'ron oyatlariga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

tafakkur qatlamlarida qoldiradi va mahalliy aholining butun ruhiyatida aks etadi", – deb yozadi.

Bugun mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, jamiyatda uning zamonaviy namunali shaklini joriy etish bo'yicha tadqiqotlarning samarali o'tkazilishi hamda ta'sirchan, ilmiy asoslangan va amaliy taklif hamda tavsiyalarning ishlab chiqilishi kabi dolzarb muammolarni davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday islohotlar nafaqat oilani mustahkamlash, balki vatan taraqqiyoti va yurt tinchligi uchun qilinayotgan islohotlardir. Abdurauf Fitrat o'tgan asrda Turkistonda mavjud oilalarni quyidagicha tariflaydi. "Baxtsizligimizning sababi oiladorlik xususidagi har bir harakatimiz, sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasida bo'lib, aksariyati Qur'on hukmlariga ziddir. Shuning uchun zulm va tajovuz ko'rmagan oilalar bizda nihoyatda kam ko'rinadi"⁵.

Fitrat oilalarni baxtli, saodatli va zulm ko'rmasdan yashashlari uchun islomiy qonunlarning bo'lishini afzal ko'rgan. A. Fitrat oila bo'yicha qarashlari islom dini va uning muqaddas kitobi Qu'ron oyatlariga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. U oila qurish hammaning burchi ekanini ta'kidlaydi. Jamiyatda uylanmaslik holatlari sonining ortishi jaholatga olib kelishini quyidagicha izohlaydi: "Odam o'rtasida jinsiy munosabat bani Odamning ijtimoiy borlig'ini ta'minlaydigan sababdir. Agar u tamoman dunyodan ko'tarilsa, bashariyat inqirozga duch kelishi aniq"⁶. Islom an'analariga quloq tutadigan bo'lsak, har bir sog'lom erkak va ayol uchun uylanish farzdir.

Oila hayoti hech qachon sidirg'asiga faqat shod-u xurramlik, baxt-saodatdan iborat bo'lmaydi. Turmushda ixtilof va tashvishlar, qiyinchilik va yetishmovchiliklar, musibat va g'am-anduhlar keragicha uchraydi. Er-xotin birgalashib, qarshi kurashsagina ularni yengish oson kechadi, oila xotirjamligi tezroq qo'lga kiradi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda, Respublikamizda mediatorlik harakati yo'lga qo'yilmoqda. Unga ko'ra, ro'y berish ehtimoli bo'lgan nizoli vaziyatlar, tortishuvlar, tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro kelishuv asosida, mediatorlik aralashuvi bilan sudgacha olib bormayoq bartaraf etilishi nazarda tutiladi.

Nikoh-oila munosabatlarida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizoli holatlarni, tortishuvlarni huquq tartibot idoralarida sud orqali

⁵ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари /А.Фитрат – Тошкент: "Маънавият", 2016. – 168 б.

⁶ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари /А.Фитрат – Тошкент: "Маънавият", 2016. – 168 б.

hal etgunga qadar mediatorlik darajasida yechim topish, xalqimiz qadriyatlariga, “Arxetip”larga “murojaat qilish”, ulardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Shunday ekan, faoliyati bevosita nikoh-oila munosabatlari bilan bog‘liq mutasaddi xodimlar, oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishda, avvalo, o‘zlari milliy qadriyatlarimiz, xalqimiz ijtimoiy ongsizligi haqidagi ma’lumotlardan ko‘proq boxabar bo‘lishlari, so‘ng oilaviy munosabatlar ishtirokchilarini ham bundan xabardor qilishlari oilaviy huquqiy munosabatlar tartibga solinishining nazariy asoslarini ta’minlaydi.

Oilaviy ajrashishlarning sabablari yuzasidan o‘tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar muammoning aksariyat hollarda ma’naviy daraja, psixologiya va tarbiyaga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy ma’noda ishsizlik, migratsiya, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimining yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani kabi muammolar ham vaziyatni o‘nglashda to‘siq bo‘lyotganini ham unutmaslik kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.* // *Xalq so‘zi.* 2020-yil 25-yanvar, – № 19.
2. *Alimov Usmonxon. Oilada farzand tarbiyasi: U.Alimov; mas’ul muharrir A.Mansur. – Toshkent: Movarounnahr, 2012.*
3. *Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. 1-jild. – Toshkent: Adolat, 2000.*
4. *Гулямов Л. Невероятное путешествие Арминиуса Вамберу //Uzbekistan Airways. Журнал НАК “Ўзбекистон ҳаво йўллари”. – № 2, 2013. – Б. 52-56.*
5. *Homidiy Homidjon. “Avesto” dan “Shohnoma” gacha. /Hamidjon Homidiy; mas’ul muharrir N.Komilov. – Toshkent: Sharq, 2007.*
6. *Psixologik atamalar ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati / Psixologiya fanlari doktori, professor G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2019.*

“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «МАХАЛЛЯ И СЕМЬЯ»
“MAKHALLA AND FAMILY” RESEARCH INSTITUTE

IJTIMOIIY BOSHQARUV

СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

SOCIAL MANAGEMENT

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2021

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality*

MUASSIS:

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Namozova O‘.,
Razzakova N., Sobirova E.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.11.2021.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 5,1.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.